



“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinnbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamtdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alihanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

ATAMURATOV Rasuljon Kadirkhonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*

JABBAROV Ulug'bek Abdurakhmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – доктор педагогических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович – доктор экономических наук, профессор.

Бегимкулов Узокбай Шоимкулович – доктор педагогических наук, профессор.

Фарфиев Баҳромжон Атҳамдҷановиҷ – доктор социологических наук, доцент.

Ишкуватов Валикул Турдиевич – доктор исторических наук, профессор.

Карамян Мариэтта Хачатуровна – доктор психологических наук, профессор.

Муслимов Нарзулла Алиханович – доктор педагогических наук, профессор.

Нурматова Мукаррам Ахмедовна – доктор философских наук, профессор.

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – доктор юридических наук, профессор.

Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна – доктор юридических наук, доцент.

Сайдивалиева Хуршида Ҳоджиакбаровна – доктор философии юридических наук (PhD).

Атамуратов Расулжон Қадиржонович – доктор философии педагогических наук (PhD).

Содикова Шоҳида Мархобаевна – доктор социологических наук, профессор.

Умирзаков Баҳодир Ҳамидович – доктор экономических наук, профессор.

Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевиҷ – доктор географических наук, доцент.

Жаббаров Улугбек Абдураҳмановиҷ – доктор философии педагогических наук (PhD).

Ҳоджинев Расулбек Бойназар оғлы – доктор философии (PhD) по философским наукам.

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – Doctor of Economic Sciences, Professor.

Beginkulov Uzokhboy Shoimkulovich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

Farfiyev Bakhromjon Atkhamedjanovich – Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.

Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – Doctor of Historical Sciences, Professor.

Karamyan Marietta Khachaturovna – Doctor of Psychological Sciences, Professor.

Muslimov Narzulla Alikhanovich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – Doctor of Philosophical Sciences, Professor.

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – Doctor of Law Sciences, Professor.

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – Doctor of Philosophy in Law (PhD).

Atamuratov Rasuljon Kadirkhonovich – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).

Sodikova Shohida Markhobayevna – Doctor of Sociological Sciences, Professor.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.

Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).

Khodjiev Rasulbek Boynazar ogli – Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.

SOTSILOGIYA

Usmonova R.M. O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsilogik tahlili	4
---	---

JAMIYAT VA OILA

Axunov M.M. Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
Yulchiyeva D. Oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati	26
Davlatova H.U. Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

IJTIMOIY PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Oilada ta’lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	46
Ummatkulova N. Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
Qahhorova F.Y. Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari	60
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
Egamberdiyeva G.B. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.....	79

IJTIMOIY PSIXOLOGIYA

Arzikulov D.N. Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
Shamsiyev O‘.B. Bolalar chapaqayligi xususida.....	94
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности	100
Xudoyorova M.X. Ta’lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati	109
Ashurova A.N. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari	119
Nazarova M.Y. Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127



Yulchiyeva Dildora,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
doktoranti*

OILA A'ZOLARI O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYAT MOHIYATI

Annotatsiya. Maqolada oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi jamiyat barqarorligining muhim omili ekanligi ta'kidlanadi. Oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada oila a'zolari o'rtasidagi ijobjiy munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mohiyati, maqsadi, vazifalari va asosiy yo'naliishlari yoritib beriladi. Oila bilan ishlashda ijtimoiy pedagoglarning roli, qo'llanadigan metod va texnologiyalar ko'rib chiqiladi.

Аннотация. В статье подчеркивается, что прочность отношений между членами семьи является важным фактором стабильности общества. Анализируются особенности семейных отношений и факторы, влияющие на них. Также в статье освещаются сущность, цель, задачи и основные направления социально-педагогической деятельности, направленной на формирование и укрепление позитивных отношений между членами семьи. Рассматривается роль социальных педагогов в работе с семьями, используемые методы и технологии.

Annotation. The article emphasizes that the strength of relationships between family members is an important factor in the stability of society. The specific characteristics of family relationships and the factors influencing them are analyzed. The article also highlights the essence, goals, objectives, and main directions of socio-pedagogical activity aimed at forming and strengthening positive relationships between family members. The role of social pedagogues in working with the family, the methods and technologies used are considered.

Tayanch so‘zlar: *oila, oilaviy munosabatlar, patriarchat tartib, tarbiya, shaxslararo muloqot, ijtimoiy pedagog, psixolog, reproduktiv vazifa, iqtisodiy vazifa, ijtimoiylashuv vazifasi, xo‘jalik-maishiy vazifa, tarbiyaviy vazifa, psixoterapevtik vazifa, baxtli oilalar, xayfi bor oilalar, asotsial oilalar, notinch oilalar.*

Ключевые слова: семья, семейные отношения, патриархальный порядок, воспитание, межличностное общение, социальный педагог, психолог, репродуктивная функция, экономическая функция, функция социализации, хозяйственно-бытовая функция, воспитательная функция, психотерапевтическая функция, счастливые семьи, семьи с риском, асоциальные семьи, неблагополучные семьи.

Keywords: *family, family relations, patriarchal order, upbringing, interpersonal communication, social pedagogue, psychologist, reproductive function, economic function, socialization function, household function, educational function, psychotherapeutic function, happy families, families at risk, asocial families, troubled families.*

Kirish. Bugungi kunda oila va uning o‘ziga xosliklari. Boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda oila shaxs tarbiyasida eng muhim vazifalarni bajaradi. Boisi, aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me’yorlar shakllanadi. Insonga butun umri davomida oila omili ta’sir etadi. Oila ijtimoiy barqarorlik jihatdan insonlar turli ijtimoiy maqom va rollarni egallaydigan kichik ijtimoiy birlik jamoasi hisoblanadi. Oila insonning o‘zini o‘zi to‘g‘ri shakllantira olishiga, uning ijtimoiy-ma’naviy faolligini oshirishiga yordam beradigan maskan hamda muhitdir¹.

Maqsad va uni asoslash. “Oilaviy munosabatlar – oliv qadriyat”, deb hisoblangan bizning yurt oilaning barqaror ijtimoiy maqomi nihoyatda baland bo‘lib, u o‘z nufuzini hozirgacha saqlab kelmoqda. O‘zbek oilasida milliy qadriyatlar asosida zaruriy tarbiyaviy omil va ko‘nikmalar ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelmoqda. Ko‘p bolali o‘zbek oilalarida patriarchal tartib saqlangan oilaviy muhitda munosabatlarning barqarorligi ta’minlangan. Biroq bugungi kunda ajrashishlar tufayli oila inqirozi ko‘pgina oilalarning barqarorligini buzganligi kuzatilmoqda va bu o‘zbek oilalaridagi farzandlar tarbiyasida ham o‘z aksini topmoqda. Jamiyatda oila a’zolari miqdorining kamayishi, avlodlararo muloqotning uzoqlashuvi kabi muammolarning ortishi bilan oilaviy munosabatlardagi shaxslararo muloqot ko‘nikmasini rivojlantirish tobora murakkab hamda dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Mazkur keltirilgan omillar oilalarning ijtimoiy pedagog, psixolog hamda malakali oilashunos

¹ Musurmanova O. Oila – jamiyat tayanchi. Monografiya. – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019.

mutaxassislarga bo‘lgan talab darajasining ortishiga xizmat qilgani bilan ham muhim hisoblanadi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Ijtimoiy hayotda oilalar kichik ijtimoiy guruh va ijtimoiy institut sifatida mavjud bo‘ladi. Birinchi turda, qarindoshlik sharti asosida tuzilgan hamda birgalikda yashash uchun birlashgan umumiy hamjamiyat shakli oila sifatida qaraladi, ikkinchi holatda esa, insonlarning umumiy hayot tarzi o‘tadigan, kundalik munosabatlarni o‘zida jamlagan ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Jamiyatimizda oila bir nechta vazifalarni bajaradi²:

Reproduktiv vazifa. Bu vazifa naslni davom ettirish bilan bog‘liqdir. Hozirgi kunda O‘zbekistonda serfarzand oilalarning ko‘pligi bilan bir qatorda, oila a’zolari sonining kamayishi ham kuzatilmoxda. Mazkur jarayonlar, ko‘pincha, moddiy-iqtisodiy inqirozlar, ma’naviy tanazzul, yosh oilalarning ota-onasi uyidan mustaqil ajralib chiqishi, tibbiy xizmatlar darajasi, ekologiyaning inson salomatligiga ta’siri kabi omillar bilan izohlanadi.

Iqtisodiy vazifa. Ma’lum bir oila a’zolari tomonidan boshqalari uchun moddiy mablag‘larning ishlab topilishi, voyaga yetmaganlar va qariyalarni moddiy jihatdan ta’minalash, pul mablag‘larini yig‘ish, to‘plash iqtisodiy vazifaning asosini tashkil qiladi. Oilaning iqtisodiy vazifasi faollashuvini zamonaviy bozor munosabatlari mulk to‘plash, mulkka ega bo‘lish, meros masalalarida talab qiladi.

Ijtimoiylashuv vazifasi. Bola shakllanishiga ta’sir qiluvchi birinchi va asosiy ijtimoiy guruh oila hisoblanadi. Ota-onasi va bolalarning tabiiy-biologik hamda ijtimoiy aloqalari oilada uzviy bog‘lanib keladi. Mikromuhit sifatida bolaning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga oila o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bolani asta-sekinlik bilan jamiyatga tayyorlash oilaning vazifasidir. Insonga ta’lim va tarbiya berilishi, uning aqliy, ijodiy qobiliyatlarining rivoji oilada sodir bo‘ladi. Aynan oilada bola mehnat qilishga va mustaqillikka o‘rganadi.

Xo‘jalik-maishiy vazifa. Oila jamiyatning asosiy va doimiy xo‘jalik negizi hisoblanadi. Oilada oila a’zolarining jismoniy holati bir maromda ushlab turiladi, kasallar va qariyalarga g‘amxo‘rlik qilinadi. Ilm-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda oilaning kundalik yumushlari (ovqat pishirish, uy tozalash, kir yuvish, kiyim tikish va boshqalar) maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari zimmasiga yuklatmoqda.

Tarbiyaviy vazifasi. Bolaning ilk ijtimoiylashuvi jarayonida muhim rol o‘ynagani uchun ham oilaning bu vazifasini alohida qayd etib o‘tish

*Ma’lum bir oila
a’zolari tomonidan
boshqalari
uchun moddiy
mablag‘larning
ishlab topilishi,
voyaga
yetmaganlar
va qariyalarni
moddiy jihatdan
ta’minalash, pul
mablag‘larini
yig‘ish, to‘plash
iqtisodiy vazifaning
asosini tashkil
qiladi. Oilaning
iqtisodiy vazifasi
faollashuvini
zamonaviy bozor
munosabatlari
mulk to‘plash,
mulkka ega
bo‘lish, meros
masalalarida talab
qiladi.*

² Egamberdiyeva N. “Ijtimoiy pedagogika”. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – B. 106.

joiz. Bola shakllanishida atmosfera va iqlimning ham ta'siri bor. Shaxsiy namuna asosida o'rnak bo'lish tarbiyaning eng muhim vositalaridan biridir. Yuqorida, "Tarbiya ijtimoiy institut sifatida" deb nomlangan qismda, tarbiyaning jamiyat va davlat taraqqiyotidagi o'rni to'g'risida to'liq to'xtalib o'tgan edik. Oilaviy barqaror muhit qanchalik sog'lom bo'lsa, uning tarbiyaviy vazifasi shunchalik to'g'ri amalga oshadi.

Psixoterapevtik vazifa. Oilada barcha oila a'zolari o'zini quay sezishi lozimligida bu vazifa namoyon bo'ladi. Psixologlar, sotsiologlar, pedagoglarning kuzatishlariga asosan, inson kapitali oila sharoitida jadal tiklanib borar ekan. O'zbekistonda oilalar barqarorligida ko'p bolali oilalarning mintaqaviy xususiyatlari uchun, aynan, oila muhitida zamin yaratilar ekan. Mamlakatimizda yuqori tug'ilish darajasining mavudligi, quyidagi mintaqaviy omillar bilan izohlanadi:

- inson organizmiga geografik muhit va iqlim sharoitlarining ta'siri, ayollarda homila davrining uzunligi;
- erta nikohdan o'tish an'anasi;
- ijtimoiy omillar;
- ayolning jamiyat va oiladagi o'rni³.

Oilaviy tarbiya amaliyotida ko'p bolalilikning ijobiy va salbiy xususiyatlari borasida hozirgi kungacha bahslar olib borilmoqda. Sababi, muammoning ahamiyatli ekanligiga qaramay, bu masala hali yetarli darajada o'rganilmagan. Ko'p bolali oila kattalar va bolalardan iborat o'ziga xos jamoadir. Unda shaxsning ijtimoiylashuvi uchun quay sharoitlar yaratiladi. Bunday oilaviy muhitda tarbiya jarayonini tashkil etish muammosi bilan shug'ullanuvchi olimlar ham turli qarashlarga egadir. Ularning ba'zilari "ko'p bolali oilada bola jamoa munosabatlari orqali tajriba to'playdi", deyishadi, chunki ko'p bolali oila tarbiya uchun quay sharoitlar yaratadi va ota-onalarning bolalari haqida qayg'urishlari teng taqsimlangan bo'ladi.

Boshqa tadqiqotchilar esa aksincha, ko'p bolali oilada bola har tomonlama yetarli rivojlanmaydi, deb hisoblashadi. Agar oilaviy tarbiya bola individualligini aniqlash va uning qobiliyatlarini rivojlantirish kerak, degan qoidadan kelib chiqsak, buning uchun oila nihoyatda rivojlangan bo'lishi kerakligiga amin bo'lamiz. Ko'p bolali oilada individual yondashuv bo'ladimi? Bu yerda tarbiya jarayonining ko'p tomonlamaligi va standartlashuvi ro'y bermaydimi? Individual yondashuv uchun, avvalo, psixologik va pedagogik bilimlar berilishi, shuningdek, tarbiya jarayonida bolalarni kuzatish uchun maxsus vaqt va psixologik tahlil

*Oilaviy tarbiya
amaliyotida ko'p
bolalilikning
ijobiylar
xususiyatlari
borasida hozirgi
kungacha bahslar
olib borilmoqda.
Sababi,
muammoning
ahamiyatli
ekanligiga
qaramay, bu
masala hali
yetarli darajada
o'rganilmagan.*

³ Egamberdiyeva N. "Ijtimoiy pedagogika". Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – B. 106.

o‘tkazish kerak. Ba’zi tarbiyaviy omillar o‘zbek oilasida, xususan, ko‘p bolali o‘zbek oilasida uy xo‘jaligini yuritish bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin.

Ko‘pchilik o‘zbek oilalarida uy ishlarini qiz bolalar bajaradi, o‘g‘il bolalar esa bu vazifalardan deyarli ozod qilingani oilaviy qadriyatga aylanib qolganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat o‘z-o‘zidan o‘g‘il bola xarakterida oiladagi muomalasiga xalaqit beruvchi odatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ba’zan bolalar uy yumushlariga haddan ortiq vaqt ajratishadi. Bu ham ularning ta’lim olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

**Katta oilalarda
bola yoshligidanoq
jamoaviy
munosabatlarga
kirishadi.
Katta va kichik
bolalar o‘rtasida
turli o‘zaro
munosabatlar
shakllanadi.
Ko‘pgina ota-
onalar ko‘p bolali
oilalarda bolalarni
tarbiyalash oson,
chunki bunda katta
farzandlar yordam
beradi, deyishadi.**

Ba’zi o‘zbek oilalarida ota-onalar bolalarining o‘qishiga befarq bo‘lishadi, ularga uyg‘a berilgan topshiriqlarni bajarishda hech qanday ilmiy yoki amaliy yordam berishmaydi. O‘zbek oilalarida bola uy vazifalarini kechqurun barcha oila a’zolari to‘planishganda qilish odat tusiga aylanib bo‘lgan. Bu vaziyatda sir emaski, ko‘pgina chalg‘ituvchi omillar ham paydo bo‘ladi: televizor ko‘rish, oila a’zolarining o‘zaro suhbatlashishi, uy yumushlarini bajarish va h.k. Ko‘pgina oilalarda bolalarning o‘qishi uchun sharoitlar mayjud, biroq ular har doim ham yaxshi jihozlangan yoki qulay sharoitli bo‘lavermaydi. Bu borada juda ko‘pchilik ota-onalar pedagogik maslahatlarga ehtiyoj sezadilar.


Shunday hollarda ota-onalarni bolalarga nisbatan munosabatlarda yordam berishning aniq usullari bilan tanishtirish lozim. O‘zbek oilalaridagi yigit-qizlarning ijtimoiy moslashuviga xalaqit beruvchi omillarga qizlarni, ko‘pincha, faqat oilaviy hayot uchun, yigitlarni esa mehnat, kasb uchun tayyorlashni kiritishimiz mumkin. Ayol kishidan malakaviy va kasbiy faollikni, erkak kishidan esa o‘z xizmat va oilaviy majburiyatlarni bajarishni talab qiluvchi, hozirgi kunda bu an‘analarning saqlanib qolishi zamonaviy ijtimoiy talablarga zid keluvchi hodisadir.

Katta oilalarda bola yoshligidanoq jamoaviy munosabatlarga kirishadi. Katta va kichik bolalar o‘rtasida turli o‘zaro munosabatlar shakllanadi. Ko‘pgina ota-onalar ko‘p bolali oilalarda bolalarni tarbiyalash oson, chunki bunda katta farzandlar yordam beradi, deyishadi. Ko‘p bolali oilalardagi tarbiyaning eng muhim omillari: muomala muhit, birgalikdagi mehnat, jamoaviy tashabbus, ota-onalarning talabchanligi, bolalar yoshini inobatga olish hisoblanadi⁴. Bunday oilalar farzandlari axloqiy xislatlarining shakllanganligi mehnatsevarligi, mehribonligi, to‘g‘riso‘zligi, mustaqilligi, ishbilarmonligi bilan ajralib turishadi. Katta oilada mustahkam va tabiiy bolalar jamoasi shakllanib, unda bu jamoa a’zolari birgalikda g‘amxo‘rlik ko‘rsatishadi, oilaning boshqa a’zolari

⁴ Quronov M. Milliy tarbiya: monografiya. – Toshkent, 2004.

oldida mas'uliyatli ekanliklarini his etishadi. Shunday qilib, o'zbek oilasining ko'p bolalilik muhiti bola tarbiyasiga, umuman olganda, ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Oilaning jamiyatda moslashuvining ko'rsatkichi uning ijtimoiy maqomi, ya'ni oilaning bugungi kundagi holati hisoblanadi. Oila maqomi oila a'zolarining individual tavsiflari majmuasidan shakllanadi.

Oilaning ijtimoiy moslashuvi bo'yicha tadqiqot o'tkazish uchun ijtimoiy pedagogika va uning xususiyatlarini bilish, ularga baho berish lozim. N.Egamberdiyevning fikricha, oilaning tarbiyaviy funksiya darajasi uning uch yo'naliishda bo'luchchi tuzilmasiga bog'liq⁵. Bu yo'naliishlar demografik: ko'p bolalilik, kam bolalilik, ikki yoki uch avlodning birgalikda yashashi, ota-onalarning ikkalasining ham bo'lishi, oila a'zolarining ta'lim olganliklari darajasi, bolalarni tarbiyalashda vazifalarni taqsimlash, oila tarbiyasining o'ziga xosligi, shuningdek, oilaning milliy xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Oila tipologiyasi ijtimoiy moslashuv darajasi bo'yicha farq qiluvchi to'rtta kategoriya asosida shakllanadi. N.Egamberdiyevning tasnifiga ko'ra, oila turlari (1-rasm):



*Oilaning ijtimoiy moslashuvi
bo'yicha tadqiqot o'tkazish uchun
ijtimoiy pedagogika va uning xususiyatlarini bilish, ularga baho berish lozim.*

Tinch, baxtli oilalar o'z vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshiradilar, o'z bolalarining ehtiyojlariga tez ko'nikadilar. Muammo paydo bo'lib qolsa, ularga bir karra yordam ko'rsatish kifoya.

Xavfi bor oilalarda adaptativ qobiliyatlar birmuncha pastroq. Ular bola tarbiyasini qiyinchilik bilan amallaydilar va ijtimoiy-pedagog yordami hamda nazoratiga ehtiyoj sezadilar.

Notinch oilalar hayotiy faoliyatning biror-bir sohasida past ijtimoiy maqomga ega bo'lib, ular o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajara olmaydilar. Bunday oilalarning adaptativ imkoniyatlari past bo'lib,

⁵ Egamberdiyeva N. "Ijtimoiy pedagogika": darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

ularda bola tarbiyasi jarayoni katta qiyinchiliklar bilan sekin kechadi. Bu oila turi uchun ijtimoiy pedagogning faol yordami zarur. Muammolari xarakteridan kelib chiqib, pedagog ularga pedagogik yoki psixologik yordamlar ko‘rsatadi.

Asotsial oilalar tubdan isloh qilinishi lozim⁶. Bu oilalarda ota-onalar g‘ayriaxloqiy va g‘ayrihuquqiy hayot tarzini olib borishadi, yashash sharoitlari oddiy tozalik-gigiyenik talablarga javob bermaydi. Bolalar tarbiyasi bilan, albatta, hech kim shug‘ullanmaydi, bolalar nazoratsiz qolib ketishadi, rivojlanishdan ortda qolishadi. Ijtimoiy pedagog bu oilalar bilan ishlaganida huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqin hamkorlik asosida ish yuritishi zarur.

Ijtimoiy-pedagogning oila bilan ish yuritishi. Ijtimoiy-pedagog faoliyati oilani o‘rganishdan boshlanadi. Oiladagi munosabatlarni o‘rganish pedagogga oilada bolaning holatini tasavvur qilish imkonini beradi. Oilani o‘rgangandan keyin, ijtimoiy pedagog oldida oilada sog‘lom barqaror yangi munosabatlarni o‘rnatish vazifasi turadi. Bu muammoni oilani turli klublar, maslahatlar, maishiy birlashmalar, bog‘, tomorqadagi ishlarga jalb qilish yo‘li bilan hal qilish mumkin.

Bolaning oilada tutgan o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘lgandan so‘ng, ijtimoiy pedagog oila bilan birgalikda u uchun reabilitatsion dastur variantlarini ishlab chiqadi. Ijtimoiy-pedagog tomonidan “Oila xaritasi”ni tuzish ham mumkin. Unda oilaning har bir a’zosining tavsifi, tug‘ilgan sanasi beriladi.

Shuningdek, oila maqomi, yashash sharoitlari, qo‘shnichilik, oilaning diniy va milliy mansubligi aniqlanadi. “Xarita”ning ilovasida “Oilada bola tarbiyasini o‘rganish” deb nomlangan qism ham mavjud bo‘lib, unda ota-onalar bola bilan qancha va qanday vaqt o‘tkazishadi, ularning umumiy ishlari nimalardan iboratligi, ota-onalar o‘z farzandlari haqida nimalar bilishlari haqidagi ma’lumotlar o‘z aksini topadi. Masalan, bola nimaga qiziqadi, nimalarni o‘qiydi, kimlar bilan do‘stlashgan, uning sog‘ligi qanaqa va shu kabilar. Shuningdek, bu jarayonda bolalarning ham ota-onalari haqida nima bilishlarini aniqlash juda muhimdir. Bundan tashqari, ijtimoiy pedagog oiladagi barcha munosabatlar kattalarning o‘zaro munosabati, kattalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni inobatga olishi muhim hisoblanadi.

Oilada hamkorlik mavjudmi yoki barcha munosabatlar kattalarning buyrug‘i asosida quriladimi? Agar bola birinchi sinfga qatnay boshlasa, ijtimoiy-pedagog bolaning holatini, kimga qanday murojaat qilishi, unga

⁶ Egamberdiyeva N. “Ijtimoiy pedagogika”. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

**Ijtimoiy-pedagog
faoliyati oilani
o‘rganishdan
boshlanadi.**
**Oiladagi
munosabatlarni
o‘rganish
pedagogga
oilada bolaning
holatini tasavvur
qilish imkonini
beradi. Oilani
o‘rgangandan
keyin, ijtimoiy
pedagog oldida
oilada sog‘lom
barqaror yangi
munosabatlarni
o‘rnatish vazifasi
turadi.**

nima yoqish-yoqmasligini aniqlashi lozim. Ijtimoiy pedagog, birinchi navbatda, muvaffaqiyatsiz oilalar bilan to‘qnash keladi. Bularga bola doimiy ota-onalar janjallari orasida yashaydigan, ota-onasi giyohvand bo‘lgan oilalar kiradi. Zamonaviy sharoitlar mavaffaqiyatsiz oilalar qatoriga ishsiz oilalarni ham kiritib qo‘ydi.

N.Egamberdiyevning tasnifiga ko‘ra, ijtimoiy pedagog oila bilan ish yuritishda quyidagi asosiy rollarni bajaradi (1-jadval):

1-jadval

Oilada ijtimoiy-pedagogning oila bilan ish yuritish metodi

1. Maslahatchi	– oilaga ota-onalar va bolalarning o‘zaro ta’sirining muhimligi haqida gapirib beradi, bola tarbiyasi bo‘yicha pedagogik maslahatlar beradi.
2. Konsultant	– oila qonunchiligi masalasi bo‘yicha maslahat beradi, mavjud tarbiya metodlarini ma’lum qiladi, oilada bolaning me’yorda o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish usullarini tushuntirib beradi.
3. Himoyachi	– bola ota-onalari tomonidan (giyohvand, aroqxo‘r, bolalarga yomon munosabat) to‘liq degratatsiyaga duch kelganda, bolani himoya qiladi.

Ijtimoiy-pedagogning oiladagi asosiy faoliyatini ijtimoiy-pedagogik yordam tashkil qilib, bu yordam ta’limiy, psixologik va vositachilik ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. Pedagogik yordamning tarkibiga ijtimoiy-pedagogik faoliyatning ikki yo‘nalishi kiradi: ta’lim va tarbiya olishda yordam ko‘rsatish. Ta’lim olishda yordam ko‘rsatish deganda, oilada vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat quyidagi masalalar bo‘yicha ota-onalarni har tomonlama o‘rganishni ko‘zda tutadi⁷:

- ota-onalarning bo‘lajak farzandlarini tarbiyalashlari uchun pedagogik va ijtimoiy-biologik tayyorgarligi;

- bolalarda tengdoshlariga nisbatan adekvat munosabatni shakllantirishda ota-onaning o‘rni;

⁷ Egamberdiyeva N. “Ijtimoiy pedagogika”. Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

- bola tarbiyasida shaxsiy namuna va “ota-on” ijtimoiy maqomining ahamiyati;
- oilada turli avlodlarning o‘zaro munosabati;
- oilada bolalarga pedagogik va psixologik ta’sir qilish usullari, bolalar va kattalar orasida ijobji munosabatlarning shakllanganligi.

Shaxslararo munosabatlarni pedagogik va psixologik korreksiyalash, asosan, oiladagi muhitda bolaga nisbatan ruhiy zo‘rlik bo‘lganda qo‘llaniladi. Ruhiy zo‘rlik bolaning asab-ruhiy va jismoniy holatining buzilishiga olib keladi. Yaqin-yaqingacha bu hodisaga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan.

Tarbiyada yordamlashish ijtimoiy-pedagog tomonidan, avvalo, otonalarga maslahat berish, shuningdek, bola bilan maxsus tarbiyaviy vaziyatlar yaratish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy-pedagogik yordamning psixologik yo‘nalishi ikki komponentdan iborat: ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash va korreksiya (to‘g‘rilash) qilish. Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash oilada qisqa muddatli inqiroz davrida, oila a’zolari turli shakldagi stress holatlarini boshdan kechirayotganlarida amalga oshiriladi. Buning uchun ijtimoiy-pedagogning qo‘shimcha psixologik ma’lumoti bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, bu ishni psixolog va psixoterapevtlar ham bajarishlari mumkin. Agar qo‘llab-quvvatlash kompleks tarzida amalga oshirilsa, u nihoyatda samarali bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy-pedagog oiladagi shaxslararo munosabatlarni, oilada bolaning tutgan o‘rnini, oilaning jamiyat bilan aloqasini tashkil qilish orqali muammoni o‘rganadi, psixolog esa psixologik testlar va boshqa metodlar vositasida oila a’zolarini nizoga olib keluvchi ruhiy holatlarni aniqlaydi, psixiatr esa davolash bilan shug‘ullanadi. Shaxslararo munosabatlarni pedagogik va psixologik korreksiyalash, asosan, oiladagi muhitda bolaga nisbatan ruhiy zo‘rlik bo‘lganda qo‘llaniladi. Ruhiy zo‘rlik bolaning asab-ruhiy va jismoniy holatining buzilishiga olib keladi. Yaqin-yaqingacha bu hodisaga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan.

Bunday zo‘rlikka bolani qo‘rqitish, uni haqorat qilish, g‘ururini poymol qilish, ishonchini oqlamaslik kabilar kiradi. Ijtimoiy-pedagog oiladagi munosabatlarni shunday korreksiyalashi lozimki, bunda, oilada tartib va intizomni ta’minlashga qaratilgan barcha choralar “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” talablariga asoslanishi lozim. Psixoterapiyadan farqli o‘laroq, korreksiya oila ichidagi nizolarni ochib ko‘rsatadi. Uning maqsadi oila a’zolariga, ular o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishga, muvozanatlashtirishga ko‘maklashishdir.

Ijtimoiy-pedagogik yordamning vositachilik yo‘nalishi uch tarkibiy qismdan iborat: tashkil qilishga yordam, tartibga solishga yordam va axborot berishga yordam. Tashkil qilishga yordam oilaviy dam olishni tashkil qilishga qaratilgan. Oilaviy dam olish o‘z ichiga xayriya auksionlarini rejalashtirish va o‘tkazishni, oilaviy bayramlar va tanlovlardan uyuştirishni, uy xo‘jaligini yuritish bo‘yicha kurslar tashkil qilishni qamrab oladi.

Yakuniy qism. Oiladagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat tizimli yondashuvga asoslangan taqdirdagina yuqori samarali bo‘lishi mumkin. U demografiya, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika (oilaning tarbiyaviy funksiyasi), huquq, iqtisod (oila byudjeti), etnografiya, tarix, falsafaga oid ma’lumotlarni o‘rganishni va ulardan foydalanishni ko‘zda tutadi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda oila turli bilim sohalari: ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy ish, sog‘liqni saqlash va boshqalarning markaziy obyektlaridan biriga aylanmoqda. Chunki, har bir jamiyatning kelajagi o‘sha jamiyatdagi oilalardagi muammolarni hal qilishga bog‘liqdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurauf Fitrat. *Oila yoki oila boshqarish tartiblari // Ikkinchি nashr.* – Toshkent: “Cho ‘lpon” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2000.
2. Egamberdiyeva N. “Ijtimoiy pedagogika”: darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – B. 106.
3. Musurmanova O. *Oila-jamiyat tayanchi: monografiya.* – Toshkent: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2019.
4. Musurmonova O. *Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.* – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
5. Saidnozarova F. *O‘zbek oilasi: ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlar.* – Toshkent: Yurist-media markazi, 2007.
6. Quronov M. *Milliy tarbiya. Monografiya.* – Toshkent, 2004. – B. 89.
7. Hasanboyeva O. va boshqalar. *Oila pedagogikasi.* – Toshkent: Aloqachi, 2006.

**“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE**

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**
Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U., E.Sultonov**
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**
Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8
Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.
Тошкент, Олмазор тумани, Чимбай кўчаси, 8-уй.